

2-TUR QANDLI DIABETNI STEM CELL TERAPIYASI ORQALI DAVOLASH SAMARADORLIGINI O'RGANISH

Toshkent Davlat Tibbiyot Universituti

1-son tibbiy radiologiya kafedrasida katta oqituvchisi

Xodjamova Gulbaxor Adhamjon qizi

baxoroy1515@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son davolash ishi fakulteti talabasi

Orifov Ramziddin Husniddin o'g'li

ANNOTATSIYA

2-tur qandli diabet (T2QD) global sog'liqni saqlash tizimida eng dolzarb metabolik kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik insulin rezistentligi va beta-hujayralar funksional yetishmovchiligi bilan xarakterlanadi. An'anaviy davolash usullari peroral gipoglikemik vositalar va insulin terapiyasi kasallikni to'liq remissiyaga olib kelmaydi, balki simptomatik nazoratni ta'minlaydi. So'nggi yillarda regenerativ tibbiyot yo'nalishida, xususan, ildiz hujayralar terapiyasi istiqbolli yondashuv sifatida keng o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotda 2-tur qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda mezenximal ildiz hujayralari transplantatsiyasining klinik samaradorligi baholandi. Tadqiqotda 120 nafar bemor ishtirok etdi va ular nazorat hamda eksperimental guruhlariga ajratildi. Olti oylik kuzatuv davomida glyukoza ning och qoringa darajasi, HbA1c, insulin sezgirligi va beta-hujayra funksiyasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, stem cell terapiyasi qo'llanilgan guruhda HbA1c darajasi o'rtacha 1.8 foizga pasaydi, insulin sezgirligi sezilarli darajada oshdi va ayrim bemorlarda insulin ehtiyoji kamaydi. Ushbu natijalar regenerativ terapiyaning istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: 2-tur qandli diabet, stem cell terapiyasi, mezenximal ildiz hujayralari, insulin rezistentligi, HbA1c, regenerativ tibbiyot, beta-hujayra, glyukoza metabolizmi.

KIRISH

2-tur qandli diabet XXI asrning eng keng tarqalgan surunkali kasalliklaridan biri bo'lib, uning global prevalensiyasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2025 yilga borib 700 milliondan oshishi prognoz qilinmoqda. O'zbekistonda ham ushbu kasallikning uchrash chastotasi ortib borayotgan bo'lib, rasmiy statistikaga ko'ra 2023 yilda ro'yxatga olingan diabet bilan kasallanganlar soni 400 mingdan oshgan. Kasallik patogenezida asosiy rol insulin rezistentligi va pankreatik beta-hujayralarning disfunktsiyasiga tegishlidir. Mavjud davolash usullari metabolik nazoratni yaxshilashga

qaratilgan bo'lsa-da, kasallikning asosiy sabablarini bartaraf etmaydi. Shu sababli regenerativ tibbiyot, xususan stem cell terapiyasi orqali beta-hujayralarni tiklash va insulin sezgirligini oshirish dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot prospektiv, randomizatsiyalangan va nazoratli tarzda olib borildi. Tadqiqotga 40–65 yosh oralig'idagi 120 nafar bemor jalb qilindi va ular nazorat hamda eksperimental guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida standart terapiya qo'llanildi, eksperimental guruhda esa standart terapiyaga qo'shimcha ravishda stem cell terapiyasi qo'llandi. Tadqiqot davomida qon glyukoza darajasi, glikozillangan gemoglobin, HOMA-IR indeksi va C-peptid darajasi o'rganildi. Ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturi yordamida tahlil qilindi va statistik ahamiyat $p < 0.05$ deb qabul qilindi.

NATIJALAR

Olti oylik kuzatuv natijalari eksperimental guruhda och qoringa glyukoza darajasi 9.8 dan 6.7 mmol/L gacha kamayganini ko'rsatdi. HbA1c darajasi 9.5 foizdan 7.7 foizgacha pasaydi, HOMA-IR indeksi 35 foizga kamaydi va C-peptid darajasining oshishi beta-hujayra funksiyasi yaxshilanganini ko'rsatdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi.

MUHOKAMA

Natijalar stem cell terapiyasining yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Mezenximal ildiz hujayralari yallig'lanishga qarshi va regenerativ xususiyatlarga ega bo'lib, pankreatik beta-hujayralarning funksional tiklanishiga yordam beradi. Xalqaro tadqiqotlar ham ushbu natijalarni tasdiqlaydi. Biroq uzoq muddatli xavfsizlik va samaradorlikni baholash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

XULOSA

Stem cell terapiyasi 2-tur qandli diabetni davolashda samarali va istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Ushbu usul glyukozani nazorat qilishni yaxshilaydi, insulin rezistentligini kamaytiradi va beta-hujayra funksiyasini tiklaydi. Stem cell terapiyasini klinik amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish, keng ko'lamli klinik sinovlar o'tkazish va milliy protokollarga kiritish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shapiro AMJ va boshqalar, 2021.
2. Wang Y va boshqalar, 2022.
3. American Diabetes Association, 2023.
4. WHO, 2022.
5. IDF Diabetes Atlas, 2021.
6. DeFronzo RA, 2009.
7. Zhao Y va boshqalar, 2015.
8. Forbes JM, Cooper ME, 2013.
9. Tabar V, Studer L, 2014.
10. Skyler JS, 2017.